Toshloq tumanida yangi

Tumandagi Xonariq MFYda “Naymanbo‘ston” Madaniyat markazining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Tumanimizda bo‘lib o‘tayotgan “Yangi O‘zbekiston–inson qadri ulug‘langan yurt” shiori ostida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar doirasida poytaxtdan tashrif buyurgan mehmonlar “Madaniyat markazi”ni ochilish marosimida ishtirok etdilar.

Mazkur filialning qurilish ishlari uchun 2,6 mlrd. so‘mdan ortiq mablag‘ sarf etildi. Qishloq aholisi uchun “Madaniyat markazi”da barcha sharoitlar yaratildi. Bir nechta to‘garaklar uchun xonalar, 200 o‘rinli konsert zali zamonaviy uslubda bunyod etildi.

"Madaniyat markazi"ning ochilish marosimida tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev so‘zga chiqib, yig‘ilganlarni muborakbod etdi. Chekka hududlarda ham aholining san’atga, madaniyatga bo‘lgan qiziqishlarini hisobga olinib, mazkur bino foydalanishga topshirilayotganligiga e’tibor qaratildi.

“Naymanbo‘ston” Madaniyat markazining tantanali ochilish marosimida elimiz suygan xonandalar, kino va teatr aktyorlari, taniqli olimlardan iborat ma’naviyat targ‘ibotchilari tashrifi toshloqliklar qalbiga bir olam quvonch ulashdi.
2022-05-31 16:20:18